

УДК 631.151.2

*Xusainov Oybek Djabbarovich*

*Qarshi Xalqaro Universiteti*

*Iqtisodiyot va muhandislik kafedrasida dotsenti*

## **QISHLOQ XO‘JALIGIDA INTENSIV ISHLAB CHIQARISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida intensiv ishlab chiqarishning dolzarb yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Amaliy xorijiy tajribalar tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlari baholanadi.

*Kalit so‘zlar:* qishloq xo‘jaligi, intensiv ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalar, tomchilatib sug‘orish, hosildorlik, resurslarni boshqarish, ekologik yondashuv, vertikal dehqonchilik, gidroponika, sug‘orish tizimlari, xorijiy tajriba, O‘zbekiston agrar sektori, aqlli qishloq xo‘jaligi, innovatsion issiqxonalar

*Khusainov Oybek Djabbarovich*

*Karshi International University*

*Associate Professor of the Department of Economics and Engineering*

## **MAIN DIRECTIONS OF INTENSIVE PRODUCTION IN AGRICULTURE**

*Annotation.* This article considers the current directions of intensive production in agriculture. Practical foreign experiences are analyzed and the possibilities of their implementation in the conditions of Uzbekistan are assessed.

*Keywords:* agriculture, intensive production, innovative technologies, drip irrigation, productivity, resource management, ecological approach, vertical farming, hydroponics, irrigation systems, foreign experience, agrarian sector of Uzbekistan, smart agriculture, innovative greenhouses

Qishloq xo‘jaligi bugungi kunda milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Dunyo miqyosida agrar sektorni intensiv rivojlantirish iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi, yer resurslarining qisqarishi kabi muammolarni yengishda strategik yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi qishloq xo‘jaligidagi intensiv ishlab chiqarishning asosiy yo‘nalishlarini xorijiy tajribalar va O‘zbekiston sharoitida tatbiq qilish imkoniyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganishdir.

Tadqiqot davomida statistik ma‘lumotlar, nashr etilgan ilmiy maqolalar, xorijiy mamlakatlarning amaliy tajribalari va mahalliy holat tahlil qilindi. Ma‘lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy uslub, iqtisodiy ko‘rsatkichlar hisoboti va empirik yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqotda Germaniya, Niderlandiya, va Yaponiyaning agrar sektordagi ilg‘or tajribalaridan foydalanildi.

Qishloq xo‘jaligida intensiv ishlab chiqarishning dolzarb yo‘nalishlari sifatida joriy davrda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda keng qo‘llanilib kelinayotgan quyidagi 3 ta yo‘nalishga to‘xtalib o‘tmoqchimiz:

1-yo‘nalish: innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. Germaniyada qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilgan. Jumladan, dronlardan foydalanish orqali dalalarning monitoringi amalga oshirilmoqda. Ushbu texnologiya hosildorlikni taxmin qilish va zararkunandalarga qarshi kurashishda tezkorlikni ta‘minlaydi. Bundan tashqari, Germaniyada biometrik sensorlar bilan jihozlangan traktorlar resurslarni 20% ga tejimli ishlatishga yordam bermoqda.

2-yo‘nalish: ekologik yondashuvlar. Niderlandiya ekologik intensiv ishlab chiqarishga katta e‘tibor berilmoqda. “Circular Agriculture” (aylana dehqonchilik) modeli orqali qishloq xo‘jaligi chiqindilari qayta ishlanib, tuproqni mineral o‘g‘itlar bilan boyitishda ishlatiladi. Niderlandiyada bu yondashuv bir gektarda hosildorlikni o‘rtacha 35% ga oshirgan.

3-yo‘nalish: yuqori samaradorlikka erishish. Yaponiyada intensiv ishlab chiqarish texnologiyalari urbanizatsiyalashgan hududlarda muvaffaqiyat bilan

amalga oshirilmoqda. Bunda vertikal dehqonchilikning o'ziga xos tomoni – kam maydonda katta hajmdagi hosil yetishtiriladi. Masalan, Kyotodagi bir gidroponika fermasi yiliga 10 tonna sabzavot yetishtirishga qodir. Bunday tizimlar suv sarfini 95% gacha qisqartirish imkonini berib kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan yo'nalishlarni qo'llash O'zbekiston sharoitidagi imkoniyatlarni kengaytirishi va iqtisodiy samaradorlik oshirishi mumkin. Zero, keyingi yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish yo'lida bir qancha islohotlarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, 2022-yilda tomchilatib sug'orish tizimining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mahsuldorlikni sezilarli darajada oshirganligi sir emas. Intensiv ishlab chiqarishning iqtisodiy samarasini g'alla yetishtirish misolida ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizning tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilingan hududlarida g'alla hosildorligi 1 gektar maydonda 15-20% oshgani kuzatilgan. Masalan, Samarqand viloyatida tajriba tariqasida joriy etilgan loyiha natijasida hosildorlik har bir gektar uchun 5,5 tonnadan 6,3 tonnaga oshdi.

Bog'dorchilikda ham innovatsion issiqxonalarda yetishtirilgan mahsulotlar eksport hajmini oshirishga yordam bermoqda. 2023-yilning o'zida issiqxonalar orqali olingan mahsulot eksportidan mamlakat 150 mln dollar daromad oldi.

Mamlakatimiz miqyosida suv resurslardan samarali foydalanish, xususan qishloq xo'jaligida suv resurslarini tejash dolzarb ahamiyatga ega. Tomchilatib sug'orish tizimini kengaytirish orqali o'rtacha 1 gektarda 2000 kub metr suv tejash imkoniyati mavjud.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida intensiv ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

✚ Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: zamonaviy dron va robotlashtirilgan tizimlarni import qilish uchun davlat subsidiyalarini kengaytirish.

✚ Mahalliy mutaxassislarni tayyorlash: intellektual (yoki smart-aqlli) dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida o‘quv markazlarini tashkil etish va xalqaro dasturlarda ishtirokni kengaytirish.

✚ Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash: qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish orqali qo‘shimcha qiymat yaratish.

✚ Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: Germaniya va Niderlandiya bilan qishloq xo‘jaligidagi texnologiyalarni transfer qilish bo‘yicha qo‘shma loyihalar tashkil etish.

✚ Kooperatsiyalarni rivojlantirish: fermerlar va dehqon xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash orqali umumiy texnologiyalar va resurslardan foydalanishni rag‘batlantirish.

Qishloq xo‘jaligida intensiv ishlab chiqarishni rivojlantirish O‘zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Germaniya, Niderlandiya va Yaponiyaning ilg‘or tajribalaridan foydalangan holda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslarni tejamli ishlatish va hosildorlikni oshirish mumkin. Ushbu yo‘nalishlar amalga oshirilganda milliy agrar sektorning samaradorligi ortadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bittman, S., & Smith, J. (2015). *Agricultural Resource Management: Sustainable Approaches*. Cambridge University Press, pp. 89-102.
2. Hoffmann, H. (2018). *Smart Farming in Europe: Challenges and Opportunities*. Springer, pp. 45-67.
3. OECD (2022). *Agricultural Policy Monitoring and Evaluation*. OECD Publishing, pp. 120-135.
4. Islomov, A. (2020). “O‘zbekiston agrar sektorida intensiv ishlab chiqarishning rivojlanish yo‘nalishlari”, *Agrar iqtisodiyot jurnali*, 4-son, betlar: 56-65.
5. FAO (2021). *Water-Saving Technologies in Arid Regions*. FAO Publications, pp. 34-50.